

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining
assiteti Sh.A.Babayevaning 60840200 – Veterinariya biotexnologiyasi ta’lim
yo’nalishi 1-bosqich 106-107- guruh talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi”
fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusidagi ochiq ma’ruza
mashg’ulotining taqdimotiga**

T A Q R I Z

O’tiladigan ma’ruza mashg’uloti mavzusi fan dasturi va ishchi o’quv dasturiga to’lig’icha mos keladi. Ma’ruza mashg’ulotining matnida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to’g’ri taqdimot qilingan. Dastlab ma’ruza mashg’ulotning maqsadi va vazifalari, ma’ruza mashg’ulotini o’qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo’lib, unda pedagogik faoliyat va o’quv faoliyat natijalari ko’rsatilgan. Ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasida esa o’quv mashg’ulotining vaqti ko’rsatilgan.

Mavzu belgilangan reja asosida ketma-ketligiga rioya qilingan, ko’rgazmali qurollardan o’z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, ma’ruza mashg’ulotda talabalar bilan muloqotda bo’lib, mavzu yuzasidan fikrlar so’ralib o’tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va nostandart testlardan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to’g’ri yozilganligini inobatga olib “Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining assistenti Sh.A.Babayeva tomonidan tayyorlangan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusidagi taqdimotni o’quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi,
biokimyosi va patologik
fiziologiya” kafedrasining dotsenti:**



D.Eshimov

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining
assiteti Sh.A.Babayevaning 60840200 – Veterinariya biotexnologiyasi ta’lim
yo’nalishi 1-bosqich 106-107- guruh talabalariga “Hayvonlar fiziologiyasi”
fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusidagi ochiq ma’ruza
mashg’ulotining taqdimotiga**

T A Q R I Z

Mavzu ishchi o’quv dasturiga mos keladi. Mavzu reja, ko’rgazmali qurollar, tayanch iboralar va asosiy mazmundan iborat. Darsning maqsadi butun mazmundan kelib chiqqan holda berilgan. Ma’ruza mashg’ulotida olimlarning bu sohada qilgan ishlari sanab o’tilgan. Ma’ruza mashg’ulotning asosiy qismi to’liq yozilgan. Bunda darslikdan, o’quv qo’llanmadan foydalanilgan.

Amaliy mashg’ulotning taqdimotida “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusi batafsil yoritilgan bo’lib, tashqi nafas, ichki nafas, kislorod, karbonat angidrid, o’pka, burun bo’shlig’i, og’iz bo’shlig’i, tomoq, hiqildoq, kekirdak, bronxlar, alveolalar, tashqi va ichki tishsimon muskullar, manfiy bosim, inspiratsiya, ekspiratsiya, tiriklik havo sig’imi, umumiy havo sig’imi, ventilyatsiya koeffitsienti, daqiqalik ventilyatsiya hajmi haqida ma’lumotlar yozilgan bo’lib, gaz almashinuvi, gazlarni tashilishi, qonning kislorod sig’imi batafsil yoritilgan. Shuningdek, bir necha jadvallar bilan mavzu mustahkamlangan. Shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat savollari, nostandart testlar va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Ma’ruza mashg’ulot matni taqdimotida internet ma’lumotlari va mavzuga oid grafik organayzerlardan foydalanilgan bo’lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o’zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistent Sh.A.Babaevaning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Nafas sistemasi fiziologiyasi” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg’uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o’ylayman va uni o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti
Veterinariya sanitariyasi va urchitish
patologiyasi laborotariyasi mudiri, v.f.d.:**



O.O'.Qo'ldoshev